ABDULLA QAHHORNING “BEMOR ’’ HIKOYASIDA JAHOLAT VA NOÇORLIK FOJEASI

URGANÇ RANÇ texnologiya universiteti FTÖ (özbek tili) yönalişi talabasi
Muhammadova Hayriniso

Annotatsiya :Uşbu maqolada özbek milliy nasrining zabardast vakillaridan biri , özbek hikoyanavisligining otasi Abdulla Qahhorning “ Bemor ” hikoyasida kambağallik , noçorlik , ijtimoiy fojealar tahlil qilinadi . Muallif asar qahramonlari hayoti orqali , ya’ni Sotiboldi va uning oilasi boşiga tuşgan musibatlar orqali öşa davrdagi qaşşoqlik va çorasizlik muammolarini sodda va ta’sirçan tasvir uslubi hamda hikoyaning asosiy mazmuni yoritiladi .

Kalit sözlar : Abdulla Qahhor , Bemor , Sotiboldi , Abduğaniboy , tabib , çilyosin , oq podşo , baxşi , doxtorxona , davr .

Аннотация : В статье анализилуются бедность , нужда и социальные трагедии в рассказе Абдуллы Каххара “Бемор ” (“Болной ”) Абдуллы Каххара – один из выдающихся представителей узбекской прозы и основоположник узбекской новеллистики . На примере жизни героев , в частности испытаный , выйпаших на долно Сотиболди и его семьи , расскрываются проблемы бедности и беспомощности того времени . Также рассмотриваются основная идея рассказа и простой , но выразительный стиль автора .

Ключение слова : Абдуллы Каххар , “Бемор ” (“Болной ”) , Сотиболди , Абдуганибой , народный целитель , обряд чилясин , Белый царь , бахши (народный сказитель) , больница , эпоха . **Abstract :** This article analyzes poverty , hardşip , and social tragedy in Bemor (The Patient) , a şort story by Abdulla Qahhor , one of the leading figures in Uzbek prose and a pioneer of Uzbek şort – story writing . Though the lives of the çaracters – particulary the hardşips faced by Sotiboldi and his family – the article explores the poverty and helplessness of the period . It also examines the story’s central ideas and the author’s simple yet compelling style .

Keywords : Abdulla Qahhor , (The Patient) Bemor , Sotiboldi,Abduğaniboy , traditional healer , çilyosin ritual , Write Tsar , bakhşi (folk storyteller) hospital , historical period .

Abdulla Qahhor özbek adabiyotida , hikoyanavis sifatida alohida öringa ega . Uning asarlarida oddiy insonlarning hayoti , turmuş tarzi va qiyinçiliklari , jamiyatdagi muammolar mahorat bilan tasvirlanadi . Yozuvçining “ Bemor ” hikoyasida XX asr

boşlaridagi özbek jamiyatidagi qaşşoqlik , ilmsizlik , e'tiqodsizlik va inson qadrining poymol bölişini oçib bergan ötkir ijtimoiy – psixologik asardir . Asarda Sotiboldi va uning oilasi boşidan keçirgan oğir , maşaqqatli kunlar orqali kambağallik , noçorlik , iqtisodiy – madaniy qoloqliklarning yana bir fojeali oqibati , johillik quyuq böyoqlarda aks ettiriladi . Hikoya öquvçini inson salomatligi , ilm – ma'rifat va mehr – oqibatning ahamiyati haqida muşohada yuritişga undaydi .

Abdulla Qahhorning "**Bemor** " hikoyasi 1936 – yil yozilgan bölib , oddiy xalqning oğir ijtimoiy ahvoli, qaşşoqlik, ilmsizlik va loqaydlik oqibatlarini foş etadi . Hikoyaning "Bemor " deb nomlanişi ham mazmunan ahamiyatli . Sarlavha qahramonning ismiga emas , uning holatiga urğu beradi . Ramziy talqinda bemor faqat Sotiboldining xotini emas , balki noçorlik va jaholatdan aziyat çekayotgan butun bir muhitning timsoli sifatida ham körinişi mumkin . Hikoyaning markazida Sotiboldi va uning betob xotini taqdiri turadi . Asarga nazar solsak , Sotiboldining xotiniga ism berilmagan . Bu uning jamiyat uçun ahamiyatsiz inson bölganining aniq dalili sifatida emas , balki oddiy , kambağal ayolning hayoti va dardi köpinça e'tibordan çetda qolganini körsatuvçi badiiy vosita sifatida talqin qiliş mumkin . Qahramonning şaxsiy ismi tilga olinmasligi uni faqat bir oilaning a'zosi sifatida emas , balki oğir turmuş şaroitida yaşayotgan köplab ayollarning umumlaşma timsoli sifatida boşidan keçirayotgan dardi va noçor ahvoliga qaratadi . Sotiboldi obrazini ham biryoqlama baholamaslik kerak . U xotiniga befarq emas . Ayolini davolaş yölini izlaydi , biroq uning imkoniyatlari çeklangan . Sotiboldi o'z oilasini qutqarişga urinadi, lekin ijtimoiy noçorlik, yo'qsizlik va çorasizlik uning qo'l-oyog'ini bog'lab qo'ygan. Şuning uçun ham hikoyadagi asosiy fojea faqat Sotiboldining qarorlarida emas , balki kambağallik va bilim yetişmasligi insonni qanday muşkul ahvolga solişida ham namoyon böladi . Qahhor öquvçini qahramonni ayblaşga emas , uning nega bunday çorasiz qolganini anglaşga undaydi . Guvohi bölganimizdek Sotiboldi , çigit pöçoq va kunjara bilan savdo qiladigan Abduğaniboyning qölida xizmat qiladi . Boy uning mehnati uçun qança haq tölaşi töğrisida hikoyada gapirilmasa - da , buni Sotiboldining qanday turmuş keçirayotganidan ham biliş qiyin emas . Oila kambağalligi va ilmsizligi tufayli malakali şifokorga murojaat qila olmaydi . Axir , kasal xotinini döxtirga körsatiş uçun talab qilinadigan 25 söm pulni u faqat tuşida körişi mumkin , xolos . U o'şa davrdagi oddiy mehnatkaş xalqning og'ir ahvolini, ezilgan va huquqsiz qatlamini ifodalaydi. Do'xtirga ko'rsatiş uçun 25 so'm pul topa olmasligi uning emas, balki jamiyatning fojiasidir . Asardagi davolaşga urinişlar jaholat va ma'rifatsizlik mavzusini oçadi . Uning orttirgan "boyligi " bir marta tabib çaqirişga , bitta tovuq söyişga , kasalni baxşiga öqitişga yetadi – yu tugaydi .

Sotiboldi pul topiş maqsadida savat töqiydi, “Çilyosin ” öqitiş uçun esa özi “ töqigan savatlarni ulgurji oladiga baqqoldan yigirma tanga qarz ” kötarişga majbur böladi . Hali bu ham hammasi emas . Endi ölgan xotinini dafn qilişi , uning turli ma’rakalarini ötkazişi , mahalladagilar , qarindoş uruğlarga dasturxon yozişi lozim . “Bularning hammasi , albatta , pul bilan böladi . Bunday vaqtlarda yöğon çöziladi , ingiçka uziladi … ”

Ilojsizlik , bir tomondan yordam umidining yöqligi Sotiboldi va uning oilasiga qöşib öquvçini ham qiynaydi , qalbimizda odam bolasining naqadar uvol bölayotganidan nadomat tuyğuladi qözğaladi . Boya aytganimdek , Sotiboldining ozgina yordamiga umid qiladigan xöjayini Abduğaniboy edi .. “ Sotiboldi xöjayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borişdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abduğaniboy uning sözini eşitib köp afsuslandi, qölidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berişga tayyor ekanini bildirdi, keyin söradi:

- Devonai Baxovaddinga heç narsa kötardingmi? ğavsula’zamga-çi? ”Deya uni jönatib yuboradi . Özi “ omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib öladigan bölganida ” markaziy şaharga Simga (hozirgi Farğona şahri) ga borib davolanib kelgan bu bağritoş kimsa xizmatkorining ayoli yoş ölib ketişi mumkinligini bila turib zarraça yordam körsatişga , qarz berişga yaramaydi . (Biz Sotiboldining xotini yoş ekanini uning jajji qizçasi bor – yöği tört yoşga kirganidan anglaşimiz mumkin !) Aksinça , xizmatkoriga uni yana ham çiqimdor qiladigan turli bid’atlarni maslahat beradi . Axir uni boy qilgan , xohlagan joyiga borib davolanişi , dam olişi , istaganiça maişat qilişi uçun yetarli mablağga ega qilgan Sotiboldi va unga öxşagan işçilarning maşaqqatli mehnati emasmidi ? Nahotki , bir ayolning hayotidan “ izvoş va oq podşoning su’rati solingan 25 sömlik pul ” azizroq , qimmatliroq bölsa ?

Bir amallab “tabib ”nomini olgan bir kimsa , yuqorida aytilganidek , ayolning nima kasal bilan oğriyotganini bilmay turib , suriştirmasdan undan qon oladi . Buning oqibatida esa “ betobning közi tinib , boşi aylanadiga bölib ” qoladi . Demak , “ tabib ” bemorga foyda emas , balki zarar yetkazadi . Holbuki , u bunday “ davolaş usuli ” ni birgina Sotiboldining xotini emas , öşa atrofdagi yuzlab beçoralar ustida qöllaydi . Köryapmizki , şunday ilmsiz , e’tiborsiz faqatgina pul uçun inson salomatligi bilan heç ikkilanmasdan öynaşa oladigan tabibni deb qança inson aziyat çekkan . “Tabib”dan keyin xonadonga baxşi kirib keladi . U xotinning joniga , dardiga da’vo böladimi – yöqmi , bu bilan uning işi yöq . Baxşi ham qayerga çaqirilsa , qaysi kasalga röparo kelsa , hammasiga kör – körona yodlab olgan narsalarini öqib , çiqib ketaveradi . Uning uçun köriçak ham , tomoq oğriq ham , ruhiy xastaliklar ham bir – farqi yöq !

Sotiboldiga tavsiya etilgan navbatdagi “najotkor ” ning qiliği hammasidan oşib tuşadi . U (yana kasalning asli nima ekanini suriştirib ötirmay !) betob xotinni “tolning xipçini bilan” savalaydi , “ tovuq söyib ” qonlaydi . Qanday qilib kasal odamga bunday vaxşiylikni qöllaş mumkin .Axir soğlom inson ham buning oğriğiga zörğa çidaydi – ku . Soğlom insonni kasal qiladigan bunday amal bilan qanday qilib betob odamni davolaş mumkin . Nahotki şu haqida öylab körişmasa .Nahotki bu qilgan işi uçun ham unga pul tölansa . Tovuq söyib qonlaşiçi .Qanday qilib bir parrandaning qoni uning kasaliga qanday da’vo böla oladi . Buni aqlga siğdiriş qiyin . Mana qarangki ilmsizlik jamiyatni qanday köylarga solişi mumkin .

Köryapsizki , johillik butun jamiyatni , kişilar ong –u şuurini butunlay band qilib olgan , millat “ tanasidan qon oldirgan bemor ” (Hamza Hakimzoda Niyoziy iborasi) holiga tuşgan edi .

Hikoyaning mazmun mohiyati , ta’sir kuçi hali bu bilan ham tugamaydi . Ölayotgan xotini uçun biror najot yölini topa olmayotgan Sotiboldi endi qöşni kampirning maslahati bilan endi tört yoşga kirgan qizçaning saharlab turib uyqusiragan holda qiladigan duosiga umidvor böladi . Sotiboldining qizi saharda uyqu aralaş “ – Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin…” deya duo qilişni buyiradi .Qizça esa şirin uyqudan uyğonişga qiynalib ingraydi , lekin otasining ğazabidan qörqib duo qila boşlaydi . Çilyosinda söng Sotiboldining xotini sal tetik çiqqanday böldi va “ - Xudo qizimning saxarlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saxarlari uyğotmang. ” , - deydi .

Yana közini yumdi, şu yumgança qaytib oçmadi - saxarga borib uzildi. Sotiboldi qizçasini ölik yonidan olib, boşqa yoqqa yotqizayotganda qizça uyğondi va közini oçmasdan odatdagiça duo qildi:

“- Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin....” Qiz hali bilmasdiki onasi vafot qilganini va endigina tört yoşga tölganida onasidan ayrilganini . Qarang , butun boşli jamiyat bor , doxtorxona bor , tabib bor , baxşi bor , qölida pul öynagan boylar bor , har qanday mehnat bölsa qilişga tayyor Sotiboldi bor , biroq najot yöq ! Bor – yöq umid şu tört yaşarlik qizaloqning ojiz duosi . Asar boşlanişida “ Osmon yiroq , yer qattiq ” iborasi epigraf sifatida berilgan . Bu ibora ham asarning qanday mazmunda ekanining yorqin namunasidir . Demak , Bemor faqat Sotiboldining xotini emas . Butun jamiyat bemor – xasta , najotga zor , tuzalişga muhtoj .

Abdulla Qahhorning adabiy mahorati “Bemor ” da realizm , satira va simvolizmning mohirona uyğunligida namoyon böladi . U özbek realistik hikoyaçiligining asosi sifatida voqealarni heç qanday bezaklarsiz , boriça tasvirlaydi . Satira Abdulla

Qahhorning eng kuçli qurollaridan biri bölib , u şaxslarning qilmişlarini kulgili va açinarli tarzda foş etadi .

Xulosa qilib aytganda , “Bemor ” hikoyasi bugungi kunda ham öz dolzarbligini yöqotmagan , çunki u insoniyatning universal muammolari , savodsizlik , firibgarlik va adolatsizlikka qarşi kuraşiş zarurligini eslatib turadi . Asar nafaqat tarixiy davrni tuşiniş , balki har qanday jamiyatdagi ijtimoiy illatlarga qarşi kuraşiş uçun muhim adabiy meros bölib xizmat qiladi . Bor – yöği bir sahifaga jo bölgan “Bemor ” hikoyasi kiçik hajmiga qaramay , mazmunan çuqur va ta’sirçan asardir . Abdulla Qahhor asar voqealarini ortiqça izoh va balandparvoz sözlarsiz , sodda va hayotiy tasvirlar orqali körsatadi . Holbuki , bu mulohazalarni yana davom ettiriş , hikoya mazmun mohiyatiga yanada çuqurroq kirib borişi ham mumkin . Bu bilan esa yozuvçining badiiy olami sirli köz oldimizda yaqqol namoyon böladi . Adibning möjaz hikoyalari bağriga olam – olam mazmun siğdira biliş , har bir söz , jumla ustida çuqur fikr yuritiş mahoratiga tan beramiz .

“ Bemor ” hikoyasi bugungi kunda ham öz ahamiyatini saqlab qolgan . U öquvçini inson salomatligi va qadr – qimmatiga e’tiborli bölişiga ilm – ma’rifatni qadrlaşga , hamda qiynalgan insonlarni qöllab - quvvatlaşga undaydi . Şu sababli bu asar nafaqat bir oilaning fojeasi haqida emas , balki insonparvarlik va jamiyat oldidagi mas’uliyat haqida ham fikr yuritişga çorlaydi . Abdulla Qahhorning muşohadali hayot haqiqatlarini özining kiçik jussasida mujassam qilgan bu kiçik hikoyasi bugungi kunda ham öz salmoği va örnini yöqotmay kelayotganining asosiy sabablaridan biri şuki , undan olinadiga xulosa hozirda ham bir qança insoniy tuyğulardan yiroqlaşib borayotgan yangi davr kişilari uçun ham ibrat vazifasini ötaganidir .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “ Anor ” qissa va hikoyalar töplami , A. Qahhor , Ğafur Ğulom nomidagi naşriyot manbaa uyi . Toşkent 2012- yil .
2. Klark , Katerina , Sovet romani : Tarix marosim sifatida Çicago : University of Çicago Press , 1981 .
3. 6 – sinf adabiyot darsligi 1- qism (2017) Toşkent . Ma’naviyat (111- 117 – betlar)
4. Toşkent . Adabiyot uçqunlari . 2019 . (53 – 55 – betlar)
5. Tursunova , Ş . (2022) Muhammad Yusuf ijodida xalqona obrazlar tasnifi . Toşkent .
6. Ş . Ahmedov . Adabiyotşunoslik . T. 2024 .